

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOV HAMIDBEK SULTANOVICH

XIX – XX ASR BOSHLARIDA XIVA MADRASALARI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

URGANCH – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Yusupov Hamidbek Sultanovich

XIX – XX asr boshlarida Xiva madrasalari.....3

Юсупов Хамидбек Султанович

Хивинские медресе в XIX – начале XX века.....25

Yusupov Hamidbek Sultanovich

Madrasahs in Khiva in the 19th – early 20th centuries.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....54

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOV HAMIDBEK SULTANOVICH

XIX – XX ASR BOSHLARIDA XIVA MADRASALARI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

URGANCH – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Tar 1057 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Masharipov Qudrat Yuldashevich tarix fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Koshanov Baxitbay Abdikerimovich tarix fanlari doktori, professor Zamonov Akbar Turginovich t.f.f.d. (PhD), professor
Yetakchi tashkilot:	Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning 2024-yil "16" avgust soat 14 : 00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-136 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "05" avgust kuni tarqatildi.

(2024-yil "05" avgust da 5 raqamli reestr bayonnomasi.)



M. K. Saribaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

X. X. Matyakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD., dotsent.

U. I. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida XXI asr axborot texnologiyalari davri sifatida – sanoat, qishloq xo‘jaligi, texnologiyalar va boshqa hayotning barcha jabhalarida va sohalarida yuksak marralarga erishishi uchun ilm-fanni rivojlantirish hayotiy zaruratga aylandi. Shu boisdan rivojlangan mamlakatlarda dunyo bo‘yicha nufuzli obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan oliy ta‘lim muassasalari ilm-fanning asosiy markazlariga aylandi. Shu bois qadimdan sivilizatsiyalar taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ta‘lim muassasalarining mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli har qachongidan ham ortib, ularning faoliyatini zamonaviy davr talablaridan kelib chiqqan holda yo‘lga qo‘yish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Dunyoda muayyan davlatlar yoki xalqlar madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan ta‘lim muassasalari, shu jumladan, Islom renessansiga katta hissa qo‘shgan madrasalar tarixini, ularning davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi va madaniy munosabatlar rivojlanishidagi o‘ziga xos tarixiy o‘rnini ko‘rsatib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, Xiva madrasalarining ijtimoiy holati va boshqaruvi, ularni moliyalashtirish manbalari, madrasalardagi ta‘lim jarayoni, ulardagi mudarrislar va kutubxonalar faoliyatini aniqlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda kelajak avlodni intellektual jihatdan yuksak salohiyatli qilib tarbiyalash, jamiyatning barcha sohaları uchun yetuk raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, barcha tashkilot va muassasalardan ilmiy-innovatsion faoliyatni samarali tashkil qilish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini o‘zida aks ettirgan ta‘lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va tarixiy taraqqiyoti yo‘lini belgilash hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishida tutgan o‘rnini yangi asoslarda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mavzu obykti bo‘lgan Xiva shahrining 1997-yil 20-oktabrda 2500 yilligini nishonlanishi, keyingi yillarda Xiva shahrida olib borilgan qurilish-obodonchilik ishlari natijasida Xiva Ichan-Qal‘adagi obidalar, jumladan, madrasalarning qaytadan ta‘mirlanishi va ularning boy eksponatlar bilan to‘ldirilishi madaniy-ma‘rifiy hayotdagi o‘zgarishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Xiva madrasalarining deyarli barchasi muzeylarga aylantirildi. Madrasalarning uzoq yillardan beri tarixiy-me‘moriy ko‘rinishini yo‘qotmasdan kelishi Xivaga sayyohlarning kelishini ko‘paytirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni¹, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-avgustdagi 673-son “2019-2022-yillarda Xorazm viloyatining Xiva shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ – 4947-сон “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Фармони. [Elektron resurs] // <http://lex.uz/pages/getpage.aspx?last id=3107036>.

to'g'risida"gi qarori² hamda yana shu kabi boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi. Tadqiqot ishi mavzusi sifatida hanuzgacha maxsus o'rganilmay kelinayotgan XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari masalasining olinishi mavzuning dolzarbligini va zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, unda innovatsion g'oyalarni jadal rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi³. Xiva xonligi va umuman Xorazm tarixida madrasalar masalasiga bag'ishlangan yoki mazkur muammoni to'liq ochib beruvchi muayyan bir manba bo'lmasada, uning mohiyatini ochib beruvchi ma'lumotlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Xiva madrasalari masalasini yorituvchi yozma manbalar mavjudligiga qaramasdan ularni kompleks o'rganish hamda yakuniy xulosalar chiqarish dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan biridir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi va 2015-2017-yillarga mo'ljallangan "Xiva xonlari davlat hujjatlari. II jild" mavzusidagi ilmiy – amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. XIX-XX asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi Xiva madrasalari tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga o'tkazgan ta'sirini tizimli asosda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mavzuning manbahunoslik va tarixshunoslik masalalarini ko'rib chiqish;
madrasalarning holati, ta'minoti va ularning boshqaruvidagi o'ziga xos jihatlarni yoritib berish;

madrasalarda ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi va ulardagi ta'lim jarayonlarini tahlil qilish;

madrasalarda mudarrislar va kutubxonalar faoliyati masalasini tarixiy nuqtayi nazardan xolisona o'rganish;

vaqf institutining tugatilishi va ta'lim tizimiga ta'sirini ochib berish;

madrasa ta'lim tizimining tugatilishi va uning oqibatlarini ko'rib chiqish;

o'rganilgan masalalar yuzasidan amaliy ahamiyatga molik taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning predmetini Xiva xonligi madrasalarining XIX-XX asr boshlaridagi manbahunoslik va tarixshunoslik tahlili, ulardagi ta'lim jarayoni, holati va ularning boshqaruvi, mudarrislar va kutubxonalar faoliyati, vaqf masalasi,

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори 2019 йил 15 августдаги 673-сон "2019-2022 йилларда Хоразм вилоятининг Хива шаҳрини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.[Elektron resurs] // <https://lex.uz/docs/4475056>.

³ Mavzuning manbahunosligi va tarixshunosligi masalalari dissertatsiyaning I bobida batafsil yoritilgan.

madrasalardagi ta'lim tizimining tugatilishi va uning oqibatlari masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, uzviylik, tarixiy ma'lumotlarni qiyosiy va tanqidiy o'rganish, umumlashtirish va tarixiy-qiyosiy tahlil qilish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xiva xonligi madrasalarida faqat aslzodalarning (shahzodalar, amaldorlar, yirik er egalari va boylar) farzandlari bilim olish imkoniyatiga ega bo'lganligi haqidagi eski qarashlarning haqiqatga zid ekanligi, madrasalarda ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xonlik fuqarolarining katta qismi bilim olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tarixiy manbalar asosida dalillangan;

Xiva xonligida XIX asr birinchi choragiga kelib, Xiva xonlari madaniy hayot sohalarida muayyan islohotlarni amalga oshirishlari asosida, madrasalar soni ko'paygan bo'lsa-da, ammo faqat mazkur davr ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos mutaxassislar yetishtirib berish bilan cheklanilganligi, madrasalarda shu davr jahon ilm-fan va madaniy-ma'rifiy andozalariga mos kelmaydigan ta'lim tizimining saqlanib qolganligi, zamonaviy dunyoviy fanlarning o'qitilishiga juda kam e'tibor qaratilganligi natijasida xonlikning ilm-fan va madaniy taraqqiyotda zamondan orqada qolib ketishiga sabab bo'lganligi isbotlangan;

asrlar davomida ilm-ma'rifat maskanlari bo'lib kelgan madrasalar bir tarafdan Rossiya imperiyasining va keyinchalik esa totalitar sovet rejimining islom diniga hamda musulmon ma'rifatiga qarshi kurashi oqibatida, ikkinchi tarafdan madrasalar mutaassib ulamolarning buyuk ajdodlarimizning va ma'rifatparvar jadid allomalarining taraqqiyotga xizmat qiluvchi yutuqlariga, ilmiy kashfiyotlarga e'tibor qaratmay va, aksincha, bu qarashlarga qat'iy qarshi bo'lganliklari sababli madrasalarning madaniyat va ma'rifat markazlari vazifasini ilgaridek bajara olmay qolishiga olib kelganligi asoslangan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti Uyg'onish davrlari (IX-XII va XIV-XV asrlar) darajasida taraqqiy qilmagan bo'lsa-da, ammo baribir rus-chor hukumati va sovet hukumati amaldorlari tomonidan xonlik aholisini savodsiz, qoloq, madaniyasiz deb baho berganliklari asossiz ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xiva xonligi saroy tarixchilarining asarlari, xonlikning so'nggi davr tarixini yorituvchi manbalar tadqiq etilib, ularda ko'rsatilgan madrasalar tarixiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan;

Xiva madrasalariga oid arxivlarda saqlanayotgan hamda ilgari nashr qilinmagan yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan;

XIX-XX asr boshlari Xiva madrasalari faoliyatiga oid materiallar bir tizimga solinib, umumlashtirilgan;

vaqf tizimiga oid tarixiy hujjatlardagi madrasalarning qanday manba orqali ta'min etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ularning boshqaruvi va ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan;

o'rganilayotgan davrda Xiva madrasalari tarixiga oid muammoli masalalar tahlili asosida tegishli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari faoliyati masalasi respublika va Xiva Ichan-Qal'a arxiv fondlarida saqlanayotgan vaqfnomalar va vaqfga oid hujjatlar, hamda saroy tarixchilari asarlari, xorijiy elchilarning hisobotlari kabi birlamchi manbalarga tayangan holda yoritilganligi, shu asosda tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va ularning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xiva shahridagi madrasalar faoliyatiga oid metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qilib, mazkur masalalar haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari faoliyati tarixiga doir to'plangan materiallar o'zbek xalqining tarixiy merosini saqlash, tadqiq etishga qaratilgan davlat dasturlarini bajarishga hamda oliy ta'lim tizimidagi muassasalarida maxsus kurslarni tashkil etishga, O'zbekiston tarixiga doir darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Xiva xonligi madrasalarida faqat aslzodalarning (shahzodalar, amaldorlar, yirik er egalari va boylar) farzandlari bilim olish imkoniyatiga ega bo'lganligi haqidagi eski qarashlarning haqiqatga zid ekanligi, madrasalarda ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xonlik fuqarolarining katta qismi bilim olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tarixiy manbalar asosida dalillanganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 23-dekabr 405-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiyalardan xalq tafakkurida tarixiy ongning shakllanishi va mustahkamlanishiga, mamlakatimiz tarixini o'rganishga qaratilgan ilmiy ko'nikma va yondashuvlar bo'yicha malakaga ega bo'lishga, tarix sohasidagi bilimlarini oshirishga imkon yaratgan;

Xiva xonligida XIX asr birinchi choragiga kelib, Xiva xonlari madaniy hayot sohalarida muayyan islohotlarni amalga oshirishlari asosida, madrasalar soni ko'paygan bo'lsa-da, ammo faqat mazkur davr ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos mutaxassislar yetishtirib berish bilan cheklanilganligi, madrasalarda shu davr jahon ilm-fan va madaniy-ma'rifiy andozalariga mos kelmaydigan ta'lim tizimining saqlanib qolganligi, zamonaviy dunyoviy fanlarning o'qitilishiga juda kam e'tibor qaratilganligi natijasida xonlikning ilm-fan va madaniy taraqqiyotda zamondan orqada qolib ketishiga sabab bo'lganligi to'g'risidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tizimida amalga oshirilgan turli tadbirlarda foydalanilgan hamda Xivadagi "Ichan-Qal'a" muzey-qo'riqxonasida ekspozitsiyalarni boyitishda, xorijiy va mahalliy sayyohlarga ekskursiyalar o'tkazishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2023-yil 10-yanvar 01-20/61-sonli ma'lumotnomasi). Bu ma'lumotlar o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini saqlash, tadqiq etish va kelgusi avlodlarga yetkazishga qaratilgan davlat dasturlarini

bajarishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, targ'ib etishga bag'ishlangan loyihalarni ishlab chiqishga hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi o'quv muassasalarida tarixiy manbashunoslik bo'yicha talabalar uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga asos bo'lib xizmat qilgan;

asrlar davomida ilm-ma'rifat maskanlari bo'lib kelgan madrasalar bir tarafdin Rossiya imperiyasining va keyinchalik esa totalitar sovet rejimining islom diniga hamda musulmon ma'rifatiga qarshi kurashi oqibatida, ikkinchi tarafdin madrasalar mutaassib ulamolarning buyuk ajdodlarimizning va ma'rifatparvar jadid allomalarining taraqqiyotga xizmat qiluvchi yutuqlariga, ilmiy kashfiyotlarga e'tibor qaratmay va, aksincha, bu qarashlarga qat'iy qarshi bo'lganliklari sababli madrasalarning madaniyat va ma'rifat markazlari vazifasini ilgariidek bajara olmay qolishiga olib kelganligi aniq ilmiy mulohazalar, fikrlar, xulosalar va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Taqdimot" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda ("O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 30-yanvardagi 06-21-88-son ma'lumotnomasi) hamda Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining "Adabiy muhit", "Xorazmnoma", "Assalom Xorazm" ko'rsatuvlarini ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-yanvar 1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Xiva xonligida ta'lim tizimi va bu tizimda madrasalarning o'rni borasida dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilgan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti Uyg'onish davrlari (IX-XII va XIV-XV asrlar) darajasida taraqqiy qilmagan bo'lsa-da, ammo baribir rus-chor hukumati va sovet hukumati amaldorlari tomonidan xonlik aholisini savodsiz, qoloq, madaniyasiz deb baho berganliklari asossiz ekanligi dalillangan ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Taqdimot" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda ("O'zbekiston tarixi" telekanalining 2023-yil 30-yanvardagi 06-21-88-son ma'lumotnomasi) hamda Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining "Adabiy muhit", "Xorazmnoma", "Assalom Xorazm" ko'rsatuvlarini ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-yanvar 1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Xiva xonligida ta'lim tizimi va bu tizimda madrasalarning o'rni borasida dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro miqyosdagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta (4 ta respublika, 1 ta xorijiy) maqola, 9 ta (2 ta xalqaro va 7 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlar tezisleri e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xiva madrasalari tarixining manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili”** deb nomlangan. Uning *“Xiva madrasalari haqidagi ma'lumotlarning yozma manbalarda aks etishi”* deb nomlangan birinchi paragrafida mahalliy tarixchilar asarlaridagi Xiva madrasalari masalasi haqidagi asosiy ma'lumotlar tahlil qilingan. Ma'lumki, xonlikda amalga oshirilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning shaxsan guvohi bo'lgan Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Hasanmurod Laffasiy, Sayid Homid to'ra Komyob, Bobojon Tarroh, Mirzo Olim Mahdum hoji, Abdulla Boltayevlar ilmiy merosi muhim o'rin egallaydi. Mazkur muarriflar o'z asarlarida e'tiborga molik tarixiy tafsilotlarni yoritish bilan bir qatorda madrasalar bo'yicha ham ma'lumotlarni keltirib o'tishgan. Xususan, *“Firdavs ul-iqbol”* asarining Munis qalamiga mansub qismida Xiva xonligidagi ba'zi madrasalar qurilishi haqida ayrim qaydlar berilgan: *“... Pirim xoja eshonning madrasasig'akim, hamul yil (1811) otasining sarimazori foyizulanvorida bino qilib erdi ... hazrati a'lo xoqoniy (Muhammad Rahimxon I – H. Y) o'z amvoli xossasidan ziyoratgoh, madrasa va xonaqohi oliy qilib, hamul uchurda itmomg'a yetib erdi”*⁴. Ushbu parchada 1811-yili Xiva shahrida madrasa, ziyoratgoh va bir xonaqoh qurilganligi ma'lum bo'ladi.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning *“Riyozu-d-davla”* (*“Davlat bog'lari”*) asarida Xiva xoni Olloqulixon davrida (1825-1842) madrasalarning ko'proq qurilganligi va u yerdagi nufuzli ta'lim maskanlariga jalb qilingan mudarrislarni shaxsan xonning o'zi suhbat asosida ko'rikdan o'tkazganligi bo'yicha ma'lumotlar mavjud: *“Chun alarning (mudarrislarning – H. Y) savoli vofiy va javobi kofiysi maqbul-u mustahsan tushub, ul hazratning (Olloqulixonning – H. Y) avotifi bekaronasi alar holig'a shomil bo'lub ... bir nechasin dars ta'limi uchun oliy madrasalarg'a mudarris ... qildi”*⁵. Bu parchadan ma'lum bo'lmoqdaki, ba'zi Xiva xonlari nafaqat xonlikning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy ishlari, xususan, oliy ta'lim jarayoniga ham o'zlarini mas'ul deb bilishgan. Bu muhim vazifani amalga oshirish orqali barcha madrasalarda talabalarga bilim berish yuqori darajaga ko'tarilgan deb xulosa qilish mumkin.

Ogahiy *“Riyozu-d-davla”* asarida Olloqulixon davrida qurilgan Madrasayi oliya haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: *“Madrasayi xon”* dir. *“Hamul yil*

⁴ Шермухаммад Мунис, Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол // Нашрга тайёрловчилар, сўз боши, изоҳлар муаллифи Н. Жумахўжа., С. Рўзимбоев., А. Ахмедов. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 381 б.

⁵ Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Riyozu-d-davla // Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni A. O'rozboyev. – Urganch: “Quvonchbek-Mashxura” MCHJ, 2021. – 427 b.

(milodiy 1835-1836-yil nazarda tutilgan – H. Y) madrasayi oliyakim, Xivaq shahrida Karvonsaroy bila Pahlavon darvozasi oralig‘ida voqe‘dir... Aning ta‘miri kamoli matonat va istehkom bila itmomg‘a yetti, ul hazratning farmoni bila aning ibtidoiy binosining banno va korfarmosi... Muhammad Rizo qushbegi erdi, ul vafot topg‘andan so‘ng Otamurod qushbegi farmon mavjabi bila korfarmo bo‘lub, itmomg‘a yetkurdi va ul Madrasayi xong‘a mavsumdir va aning ta‘rixini donishinsho, fazilatintimo domullo Mirzo Masiho ravvahallohu ruhahu “Tamma xayran” topibdur”⁶.

Ogahiyning Muhammad Aminxon hukmronlik davri voqealari (1846-1855) tasvirlangan “Jome‘ ul-voqeoti sultoniyy” asarida nafaqat Xiva xonligida, balki O‘rta Osiyodagi eng yirik madrasalardan sanalgan Muhammad Aminxon madrasasi haqida quyidagilar bayon qilingan: “Xivaq shahri arkining janubiy tarafida bir madrasayi oliy imoratig‘a uch yildin beri iltifot partavin solib, ushbu yil itmomg‘a yetkurdilarkim, hech kishi rub‘i maskunda oning mislidin nishon bermaydur”⁷.

Ogahiyning so‘nggi “Shohidu-l-iqbol” asarida Muhammad Rahimxon II 1289/1872-1873-yili Xivada qurdirgan madrasa haqida quyidagilarni bayon etadi: “... ushbu yil Xivaq dorussaltanatining ichkari qal‘asida, ark darvozasining muqobalasida bir madrasayi oliy imorat qildurdikim... bu madrasa imoratining ishi o‘tgan yili boshlanib qish fasli kelgon uchun notamom qolmish erdi. Ushbu yil itmomg‘a yetti”⁸. Ushbu va yuqorida berilgan ko‘chirmalardan ma‘lum bo‘lyaptiki, xonlar tomonidan o‘z nomiga atab barpo qilingan madrasalar “Madrasayi oliy” maqomiga ega bo‘lgan.

Munis va Ogahiyning tarixnavislik an‘anasini davom ettirgan Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida Xiva xoni Feruz davrida mamlakat bo‘ylab vaqf hisobidan ta‘minlangan qurilish va obodonchilik ishlari ko‘lamining kengayganligi haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tgan. Jumladan, “Ma‘lum bo‘lsinkim, xon hazratlari bag‘oyat mushfiqfuqaro va bag‘oyat xayrdo‘st kishi erdilar. Ko‘p madrasalar va masjidlar bino qildilar va ko‘p madrasalarning binolariga sabab bo‘ldilar”⁹.

Xonlikda yashagan yana bir tarixchi Hasanmurod Laffasiy o‘zining “Tazkirayi shuaro” nomli kitobida Xivadagi Abdullaxon va Muhammad Rahimxon II madrasalarida mudarris bo‘lib faoliyat olib borgan Otaniyoz oxun Niyoziy nihoyatda bilimdon va ilmi kishi bo‘lganligini ta‘kidlab: “Otaniyoz otasining rizoligi birlan Xivaga kelib, ilm tahsili uchun madrasada istiqomatlar qilib, onchalig‘ riyozatlar ko‘rib, o‘zining qobiliyatligi orqasida bir necha muddatlar mehnatlar ko‘rib, xatmi kitob qiladur. Ammo Niyoziykim Otaniyoz qora mulaqqablig‘ bo‘lub, ondag‘ xushxat, xushxon bo‘ladurki, zamon Arastu Aflotunlari Niyoziyning qalam raxshin chobukvorliq bilan, varaqlar sahifayi sahrosida xushraftorlik bilan surishiga

⁶ Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Riyozu-d-davla. – B. 275.

⁷ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Жомеъ ул-воқеоти султоний // Нашрга тайёрловчи Ф. Каримов. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. Асарлар. 6 жилд. – 208 б.

⁸ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол // Нашрга тайёрловчи, сўз боши, изоҳлар муаллифи Н. Шодмонов. – Тошкент: “Мухаррир”, 2009. – 335 б.

⁹ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 104 б.

musallam qilib, angushtlarin hayrat dandonlari bilan tishlab, alhazar qilur edilar”¹⁰, – deb ta’rif beradi.

Xonlikda saroy tarixnavisligi an’anasini davom qildirgan muarrixlardan yana biri Sayid Homid to’ra ibn Sayid Muhammadxon to’ra Komyob bo’lib, uning “Tavorix ul-xavonin” asarida Xiva chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi vaqtida, shahardagi ba’zi madrasalar ziyon ko’rganligini quyidagicha bayon qiladi: “Hamul to’f o’qi xavf berib, qal’ani biroz yerini tushurubdir va madrasa va ba’zi imoratlarni andak yerini hamul to’f o’qi uchurdi va kungurasini tushurdi”¹¹. Ammo Komyob aynan qaysi madrasa binosiga zarar yetganini keltirib o’tmagan.

Xiva xonligi tarixida Muhammad Rahimxon II (1864-1910) hukmronlik qilgan davr madaniy-ma’rifiy jarayonlar rivojlanganligi bilan chuqur iz qoldirgan. Xususan, Muhammad Rahimxon II saroyida shoirlar faoliyatiga umumiy rahbarlik qilgan Bobojon Tarroh “Xorazm navozandalari” asarida Xiva adabiy muhitidagi 31 ta shoirning ijodi va faoliyati haqida ma’lumot berar ekan, ularning ba’zilari mudarrislik faoliyati bilan shug’ullanganini qayd qilib o’tadi¹².

Toshkentlik tarixchi Mirzo Olim Mahdum hoji o’zining “Tarixi Turkiston” asarida Xiva xonlaridan Muhammad Rahimxon I va Muhammad Aminxon davrida Xiva shahridagi obodonchilik ishlariga to’xtalib o’tadi. Jumladan u: “Muhammad Rahimxon I Xiva shahrining obodonligi uchun nihoyatda sa’y va ijtihod aylab, masojid va madoris va imorati oliya bino qilib, shaharning atrofiga g’oyatda mahkam hisor bino qildi”¹³, – deya ta’kidlagan edi.

Xivalik tarixchi Abdulla Boltayev (1890-1966) asarlari ham Xiva shahridagi madrasalar haqida ma’lumotlarga boy manbalardan sanaladi. U “Xiva esdaliklari” asarida Xiva shahridagi masjid hamda madrasalarning soni va qurilgan sanasi, vaqf mulklari va daromadlari, vaqf muassasasi xodimlari soni haqida qimmatli ma’lumotlar keltirib o’tgan¹⁴.

Ushbu paragrafda yana rus va xorij manbalarida Xiva madrasalari haqidagi ma’lumotlar keltirib o’tilgan va tahlil qilingan.

Bu manbalar jumlasiga, XIX asrda Xiva xonligiga tashrif buyurib, o’z taassurotlarini yozib qoldirgan rus harbiylari, diplomatik missiya vakillari, sayyohlar va hatto ba’zi savdogarlar esdaliklaridagi Xiva xonligining madaniy hayoti va madrasalari bo’yicha qimmatli ma’lumotlarni kiritish mumkin.

Xiva xonligining rivoji qo’ng’irotlar sulolasi va Xiva xonlari shajarasidagi eng kuchli hukmdorlardan biri Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davriga to’g’ri keladi. 1819-yili u bilan uchrashgan rus zobiti N. Muravyov: “Bu hukmdor o’ta taqvodor odam bo’lib, arab, fors tillarini bilgan va “Oxun xon” unvonini olgan”, –

¹⁰ Хасанмурод Лаффасий. Тазкираи шуаро // Нашрга тайёрловчи, П. Бобожонов. – Урганч: Хоразм, 1992. – 120 б.

¹¹ Сайид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. – Тошкент: “Академия”, 2002. – 116 б.

¹² Бобожон Тарроҳ Азизов – Ходим. Хоразм навозандалари. Нашрга тайёрловчи, Давлатёр Раҳим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 93 б.

¹³ Мирзо Олим Маҳдум хожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009. – 242 б.

¹⁴ Болтаев А. №45. Тарих. Хива эсдаликлари. 1964. К. Болтаев шахсий кутубхонасида сақланади, Хива шаҳри, кўлёзма. – 100 варақ.

deb yozgandi¹⁵. Bundan ko‘rinib turibdiki, Muhammad Rahimxon I Sharqning ba’zi ulug‘ hukmdorlari kabi taqvo va yuqori salohiyat egasi bo‘lgan.

“Описание Хивинского ханства” asari muallifi G. Danilevskiy 1842-yilda Xiva xonligida rasmiy tashrif bilan bo‘lgan. Uning guruhi oldiga qo‘yilgan masalalardan biri yaqin orada bosib olinishi kerak bo‘lgan Xorazm diyorining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida aniq ma’lumotlar to‘plash edi. Ushbu guruh tarkibida bo‘lgan tabiatshunos F. I. Baziner va aka-uka topograf Zeleninlar hech bir narsani nazardan chetda qoldirmay yozib oladilar. Ular mamlakat ichidagi shahar, madrasa va maktablar soni haqida imkon qadar to‘liq ma’lumot berib o‘tadilar. Jumladan, G. I. Danilevskiy Xivaga kelgan davrda shaharda 22 ta madrasa faoliyat ko‘rsatganligini ta’kidlab o‘tgan¹⁶.

Xiva madrasalari haqida ma’lumot beruvchi rus manbalari jumlasiga yana P. G. Redkina¹⁷, M. I. Ivanin¹⁸, L. F. Kostenko¹⁹, rus fotografi G. Krivsov²⁰, harbiy tarixchi, yurist, lingvist M. A. Terentyev²¹, E. Jelyabujskiy²², V. Girshfeld va M. N. Galkin²³, turkiyshunos olim A. N. Samoylovich²⁴, B. B. Bartold²⁵, V. I. Masalskiy²⁶ hisobot va kundaliklarini kiritib o‘tish mumkin.

Xorij manbalari sirasiga venger sharqshunosi Herman Vamberi va 1873-yili Xiva yurishida qatnashgan Amerikaning “Nyu-York Gerald Tribyun” gazetasining Peterburgdagi jurnalisti A. Y. Mak-Gaxan asarlari kiradi.

1863-yilda Xivaga kelgan H. Vamberi Xiva madrasalarida diniy adabiyotlar Buxoroga qaraganda kamroq o‘qitilishini qayd etadi²⁷. Bizningcha, Xiva madrasalarida Buxoro madrasalariga nisbatan o‘qish muddati kamroq bo‘lgani uchun H. Vamberi shu ma’lumotni berib o‘tgan bo‘lsa kerak.

Amerikalik jurnalist Mak-Gaxan chor Rossiyasining Xiva xonligini istilo qilinishida qatnashgan. U o‘zining “Военные действия на Оксусе и падение Хивы” asarida Xiva shahridagi madrasalarga alohida to‘xtalib o‘tadi.

¹⁵ Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. – Москва: тип. Августа Семена, 1822. Ч. II. – 144 с.

¹⁶ Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства // Записки Русского географического общества. – Москва: Тип. Министерства внутренних дел, 1851. Книга 5. – 153 с.

¹⁷ Редкина П. Г. Записки императорского русского географического общества. – Санкт-Петербург: Типография Ф. Королькова, 1851. – 360 с

¹⁸ Иванин М. Н. Хива и река Аму-Дарья. – Санкт-Петербург: Тип. тов-ва “Обществ. Польза”, 1873. – 64 с.

¹⁹ Костенко Л. Ф. Город Хива в 1873 году // Туркестанский сборник. Т. 82. – Спб.: Типография Штаба Отдельного Корпуса Внутренней Стражи, 1873. – 235-254 с.

²⁰ Кривцов Г. Альбом. Виды и типы Хивинского ханства. 1873 года. – СПб.: Типо-литография Э. Арнгольд, 1873. – 250 с.

²¹ Терентьев М. А. Хивинские походы русской армии. – Москва: “Вече”, 2010. – 447 с.

²² Желябужский Е. Очерки завоевания Хивы. – Москва: Б.и., 1875. – 138 с.

²³ Гиршфельд В., Галкин М. Н. Военно-статическое описание Хивинского оазиса. Ч. 2. – Ташкент: тип. Штаба Туркест. воен. окр.1903. – 265 с.

²⁴ Самойлович А.Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханства в 1908 году // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. – №9. – Санкт-Петербург: Тип. Имп. Акад. наук, 1909. – 21 с.

²⁵ Бартольд В. В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка // Кауфманский сборник. – Москва: Тип. Тов-ва И.Н. Кушнерев и Ко., 1910. – 247 с.

²⁶ Масальский В. И. Туркестанский край. – СПб.: Тип. Имп. Акад. наук, 1913. – 308 с.

²⁷ Вамбери Г. Путешествие по Средней Азии. – Москва: издание А. И. Мамонтова, 1867. – 361 с; Путешествие по Средней Азии из Тегерена в Хиву, Бухару и Самарканд. – Москва: издание А. И. Мамонтова, 1867. – 171 с.

Mak-Gaxan Muhammad Rahimxon II qurdirgan madrasani chiroyli tasvirlagan. Jumladan, “Xon joy hozirlatgan yerdan, saroy oldidagi maydonda qurilgan madrasaga bordik. Bu madrasa eng yangi binolardan biri hamda pishgan g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, me‘moriy nafislikka katta e‘tibor berilgan” deb yozadi²⁸. Ammo uning ma‘lumotlarida ba‘zi chalkashliklar ham uchrab turadi. Masalan, Xiva shahridagi 4-5 ta madrasadan boshqasi loydan qurilgan deb ma‘lumot beradi, lekin tarixiy manbalarda shahardagi madrasalarning hammasi pishgan g‘ishtdan qurilgani bayon qilib o‘tilgan.

Xullas, Xiva madrasalari haqidagi mahalliy, rus va xorij manbalari ma‘lumotlari bir-birini to‘ldirishi bilan alohida ahamiyatga molik.

Dissertatsiya birinchi bobining “*Mavzuning tarixshunoslik tahlili*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Xiva madrasalari tarixi masalalari aks etgan tarixshunoslik tadqiqotlari ilmiy-qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Tarixshunoslik bo‘yicha tahlildan kelib chiqib mavzuga oid barcha adabiyotlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1. XX asr boshlaridan to hozirgi kungacha xorij davlatlarida va sovet davrida olib borilgan tarixshunoslik tadqiqotlari. 2. Mustaqil O‘zbekistonda yaratilgan tadqiqotlar.

Sovet davrida yaratilgan ishlarning ko‘pchiligi mustabid tuzum mafkuraviy jihatdan ayni avj olgan yillariga to‘g‘ri keladi. Shu sababli tadqiqotlarda mavzuga bir yoqlama baho berish ustunlik qiladi. Qolaversa, “eskilik sarqiti” sifatida qaralgan madrasalar tarixi alohida tadqiq etilmasdan, sinfiy masalalar doirasida, umumiylikda o‘rganildi. Bu davrda amalga oshirilgan nashrlarning salbiy bir jihati mahalliy tadqiqotchilarning o‘z hamyurtlarining shaxsiy kuzatuvlariga, boy birlamchi manbalarga tayanishdan ko‘ra, hukmron mafkura asosida masalaga bir tomonlama baho berilishi edi.

Tarixshunoslikdan ma‘lumki, Xiva xonlari arxivi P. P. Ivanov tomonidan ilk bora tadqiq etilgan. Olim tadqiqot natijalarini 1940-yilda “Архив хивинских ханов XIX века” nomli asarida e‘lon qiladi hamda arxiv va undagi hujjatlarining mazmuni haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi²⁹.

Bu davrda Y. G‘ulomov³⁰, G. A. Pugachenkova va L. I. Rempel³¹, M. Y. Yo‘ldoshev³², G. Nepesov³³, G. M. Bilolov³⁴, V. A. Bulatova va I. I. Notkin³⁵, A. S.

²⁸ Мак Гахан А. Я. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. – Москва: В Университетской типографии (Катков и КР), 1875. – 304 с; Ўкуздаги ҳарбий ҳаракатлар ва Хиванинг истило қилиниши // О. Абдуллаев таржимаси. – Тошкент: Молия институти босмаҳонаси. 2000. – 98 б.

²⁹ Иванов П. П. Архив хивинских ханов XIX века. Исследование и описание документов с историческим введением. – Ленинград: Гос. публ. б-ка, 1940. – 289 с.

³⁰ Гулямов Я. Г. Памятники города Хивы // Труды Узбекстанского филиала АН СССР. Серия I. История и археология. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1941. – 42 с.

³¹ Пугаченкова Г. А., Ремпел Л. И. Выдающиеся памятники Архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1958. – 290 с.

³² Йўлдошев М. Й. Хива хонлигида феодал ер эғалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – 364 б.

³³ Непесов Г. Из истории Хорезмской революции (1920-1924 гг.). – Ташкент: Государственное Издательство Узбекской ССР, 1962. – 357 с.

³⁴ Билолов Г. М. Хоразмда халқ маорифи тараққийси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 130 б.

³⁵ Булатова В. А., Ноткин И. И. Архитектурные памятники Хивы. – Ташкент: Издательство “Узбекистан”, 1972. – 92 с.

Sodiqov³⁶, L. Y. Mankovskaya va V. A. Bulatova³⁷, A. Abdurasulov³⁸ tadqiqotlarida Xiva madrasalarining ba'zi jihatlariga e'tibor qaratilgan.

XX asrning 50-yillaridan boshlab, Angliya va Amerikada O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullanadigan maxsus ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil topib, ularning faoliyatida asosiy e'tibor Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, geografiyasi, tili, etnografiyasi, urf-odatlarini o'rganish bilan birga madaniyati va maorifi taraqqiyoti jarayonlarini, shu jumladan, madrasalar faoliyati masalalarini ham o'rganishga qaratilgan. Xususan, AQSH, Angliya, Fransiya va Germaniya davlatlaridagi bir qator ilmiy markazlar va universitetlar huzurida Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, Xiva xonligi tarixini o'rganish bo'limlari tashkil etilgan³⁹.

XX asr 60-yillari oxirida amerikalik olim E. Ollvort o'zining "O'zbek adabiy siyosati" kitobida Xiva tarixchisi Ogahiyning badiiy-tarixiy asarlari haqida to'xtalib, o'zining tahliliy fikrlarini bergan⁴⁰.

Xorijlik mualliflar R. Gink, K. Kombas, Y. Goldshteyn tomonidan yaratilgan tarixiy adabiyotlarda esa Xiva xonligidagi madaniy hayot, me'moriy yodgorliklarning saqlanish holati to'g'risida keng ma'lumotlar aks etgan bo'lib, ularda Xiva madrasalari haqida ham muayyan ma'lumotlar keltirilgan⁴¹.

Xiva xonligi tarixiga oid manbalarni o'rganishda yana bir amerikalik olim Y. Bregelning xizmatlari katta bo'lib, bu tadqiqotchi Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarining tanqidiy matnini nashr etish jarayonida bu manbadagi madrasalar faoliyati masalasini ham tahlil qilgan⁴².

Germaniyada yashagan va asli o'zbek tadqiqotchisi doktor Boymirza Hayitning ta'kidlashicha, XX asr boshlarida Xiva shahrida 65 ta madrasa faoliyat yuritgan⁴³.

Xiva madrasalari ta'lim tizimi, qurilishi, me'morchiligi, kutubxona tarixi, vaqfga oid ma'lumotlar xususida mustaqillik yillarida ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirildi, yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Jumladan, D. Rahim va Sh. Matrasulov⁴⁴, M. Ahmedov⁴⁵, K. Xudoyberganov⁴⁶, A. Abdurasulov⁴⁷, S. Hasanov⁴⁸,

³⁶ Садыков А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. – Ташкент: Фан, 1972. – 212 с.

³⁷ Маньковская Л. Ю, Булатова А. А. Памятники зодчества Хорезма. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1978. – 192 б.

³⁸ Абдурасулов А. Социально-экономическая и культурная жизнь города Хивы в конце XIX – начале XX века. Дисс... канд. ист.наук. – Ташкент: 1988. – 171 с.

³⁹ Масалиева О. XIX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи: Тарих фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 22-23 б; Маткаримова С. М. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX – XXI аср боши) // Тарих фан. номз. ...дисс. автореферати. – Тошкент, 2010. – 31 б.

⁴⁰ Allworth E. Uzbek literary politics. – London-Paris: Mouton, 1964. – 366 p.

⁴¹ Gink R., Kombas K. The pearls of O'zbekistan: Bukhara, Samarkand and Khiva. – Budapest: Corvina Press, 1974. – 94 p.; Goldenstein Y. Samarkand-Boukhara-Chakrisabz-Khiva. – Paris, ACR Edition, 1995 – 192 p.

⁴² Munis Sh. M. M. Firdaws al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yury Bregel / E. J. Brill. – Leiden-New York Kobenhain-Koln, 1988. – 1280 p. (60 betlik kirish qismi bor); yana qarang: Munis Sh. M. M. Firdaws al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yury Bregel / E. J. Brill. – Leiden-Boston-Koln, 1999. – 718 p. (ingliz tilidagi tarjimasida Y. Bregel tomonidan tuzilgan 4 ta xarita ham bor).

⁴³ Боймирза Ҳ. Туркистондаги мадрасаларнинг ислом – турк маданиятидаги роли. (Вақф ҳафтаси китоби). – Анкара: Вақфлар Бош бошқармаси, 1993. – 260 б.

⁴⁴ Раҳим Д., Матрасулов Ш. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991. – 126 б.

⁴⁵ Аҳмедов М. Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 141 б.

⁴⁶ Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. – Урганч: Хоразм, 1996. – 104 б.

⁴⁷ Абдурасулов А. Хива (тарихий – этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 144 б.

⁴⁸ Ҳасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 302 б.

F. Ernazarov⁴⁹, A. Sadullaev va A. Sotliqov⁵⁰, O. Mutalov⁵¹, Y. Rahmanova⁵², M. Matyakubova⁵³, S. Matkarimova⁵⁴, A. S. Erkinov, N. T. Polvonov, X. A. Aminov⁵⁵, O. Qo‘shjonov va N. Polvonov⁵⁶, I. Alimov⁵⁷, Q. Yakubov⁵⁸ kabi tadqiqotchilar ushbu masalalarga e‘tibor qaratishgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi: **“Xiva madrasalari faoliyati: ijtimoiy holati, boshqarilishi va ta’lim jarayoni”** deb nomlanadi. Ushbu bobning *“Madrasalarning ijtimoiy holati, ta’minot tizimi va boshqaruvi”* deb nomlangan birinchi paragrafida mazkur masala arxiv manbalari asosida tahlil qilingan.

Bu faslda Xiva madrasalari faoliyati va ijtimoiy jihatdan qanday ta’minlanganligi, boshqaruvi qanday tartibda olib borilganligi haqidagi ma’lumotlar aks etgan.

Xiva madrasalarining boshqaruvi mutavalli tomonidan olib borilgan. Mutavalli vaqf yerlaridan tushgan pullarning hisob-kitobini yurgizgan. U oxun, mudarris, muallim, muazzin, farrosh, sartarosh, tanobchi va qorovullarga maosh to‘lash bilan shug‘ullangan. Mutavalliga nafaqat diniy-ma’rifiy muassasa vaqf xo‘jaligini boshqarish, balki uning faoliyatini tashkil qilish vazifasi ham yuklatilgan. Bu holat, ayniqsa, Xiva madrasalari misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Madrasaning barcha xodimlari vaqfnomada belgilangan tartibda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lganlar. Masalan, Rahmonberdiy madrasasi vaqfnomasida xodimlar majburiyatlari quyidagicha keltirilgan: *“...har tolibi ilmiykim mazkura madrasa hujrasida istiqomat ko‘rguzur. Har yil ichida beuzri shar’iy paydarpay qirq kun baytutani tark etmasun. Va mudarrisi dog‘i beuzri shar’iy mutavoliyan ikki hafta darsgo‘ylik‘in matruk tutmasun. Va mazkura madrasa masjidining imom va muazzini dog‘i beuzri shar’iy imomat qilmoq, azon va qomatni barpoy tutmoqini mutavoliyan bir hafta tark etmasunlar. Farrosh va sartarosh dog‘i ilmi toliblarining soch va lablarining mo‘yin olmoqda va mazkura madrasaning xas va xashagin supurmak va pok qilmoqda beuzri shar’iy bir hafta tark etmasunlar...”*⁵⁹

⁴⁹ Эрнazarов Ф. XIX аср охири – XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданият ҳаёти. Тарих фан. номз... дисс. автореф... – Тошкент: 2005. – 26 б.

⁵⁰ Садуллаев А., Сотлиқов А. Хоразм Маъмур академиясининг тарихий илдиэлари. – Нукус-Урганч: “Қорақалпоғистон”, 2003. – 327 б.

⁵¹ Мугалов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида 1825-1842 йиллар (Риёзу-д-давла қўлёзма асари асосида): Тарих фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 150 б.

⁵² Раҳманова Ю. М. Хива шаҳрининг XVI – XX асрнинг бошларидаги ижтимоий-сиёсий ҳаёти: анъана ва ўзгаришлар. Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – 180 б.

⁵³ Матякубова М. М. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи: Тарих фанлари номз... дисс. – Тошкент: 2008. – 183 б.

⁵⁴ Маткаримова С. Хива хонлигининг қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX – XXI аср боши): Тарих фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент. 2010. – 31 б.

⁵⁵ Эркинов А. С., Полвонов Н. Т., Аминов Х. А. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи (Хоразмда китобат ва кутубхоначилик тарихидан). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2010. – 383 б.

⁵⁶ Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: “ABU MATBUOT-KONSALT” МЧЖ, 2007. – 387 б.

⁵⁷ Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши тарихи (1917-1929 йиллар). – Тошкент: Фан, 2009. – 222 б.

⁵⁸ Якубов Қ. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошида Хива хонлигида вақф институти (Тарихий – манбашунослик таҳлили). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2018. – 52 б.

⁵⁹ Ичан-Қалъа давлат музей қўриқхонаси фонди. ГХМЗ КП. – №1327.

Xullas, voqif tayinlagan mutavalliga vaqf ma'muriyatining yetakchisi sifatida vaqf mulklarini boshqarish, ularning qayta sarmoyasini ta'minlash, muassasa xodimlari o'rtasida vaqf daromadlarini o'rnatilgan tartibda taqsimlash, vaqf mulklari yo'naltirilgan muassasa binosini doimiy ravishda ta'mirlab, lozim darajada tutib turish kabi qator vazifalarni bajarish yuklatilgan. Majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan, ishonchsiz va ta'magir bo'lgan mutavalli qozi tomonidan vazifasidan ozod qilingan.

Bu paragrafni tadqiq qilishda "Ichan-Qal'a" davlat muzey qo'riqxonasi fondidagi arxiv materiallaridan ham kengroq foydalanildi⁶⁰.

Ushbu bobning "*Madrasalarda ta'lim tizimi va ta'lim jarayoni*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida madrasalardagi ta'lim jarayonida qaysi fanlar o'qitilganligi, talabalarga stipendiyalarning qay tartibda taqsimlanganligi, hujralar bilan ta'minlanganligi va uch xonlikda ta'lim tizimining qanday yo'lga qo'yilganligi qiyosiy tahlil orqali ochib berilgan.

Xiva madrasalarida islom dini qonun-qoidalari, arab va fors tillari, tabiiy fanlar va falsafa o'rgatilgan. Ayrim madrasalar ixtisoslashgan bo'lib ularda tibbiyot, geografiya, musiqashunoslik, xattotlik kabi san'at sohalari ham o'qitilgan hamda madrasalar asosan huquqshunoslar, davlat idoralari xodimlari, maktabdorlar, tabiblar va boshqa bir qator sohalar mutaxassislarini tayyorlab berganlar⁶¹.

O'rta Osiyoning uchala o'zbek davlatida ham madrasa talabalariga stipendiya, ya'ni nafaqa ham to'langan. Bu o'rinda Xiva, Buxoro, Qo'qon shaharlari madrasalarida talabalarga qay tarzda nafaqa to'langanligi ko'rib chiqamiz.

Xiva madrasalarida talabalar madrasaning vaqf mulkidan keladigan daromaddan ta'minlanib turardi. Vaqf yerlaridan olinadigan ijara haqiga ijarachilar bug'doy, makkajo'xori kabi mahsulotlar bergani sababli talabalarga ham pul emas, g'alla berilardi. Madrasa talabalar madrasada necha yil o'qiyotganligiga qarab ta'minot masalasida uch guruhga bo'linar edi. Birinchi guruh, ya'ni yuqori kurslardagi talabalar bir yilda bir marta madrasaning daromadiga qarab 20 dan 40 botmongacha g'alla bilan ta'minlanardi. Ikkinchi guruhga, ya'ni o'rta kurslardagi talabalarga 10 botmondan 20 botmongacha g'alla berilardi. Uchinchi guruh, ya'ni yangi o'qishga kirgan talabalar 5 botmondan 15 botmongacha g'alla olishardi⁶².

Manbalarda Buxoro amirligi madrasalarida tahsil olgan talabalarining 4 manba asosida kun kechirgani ta'kidlanadi: birinchisi vaqf daromadi hisobidan; ikkinchisi yoz oylarida o'zining o'qituvchilik faoliyati hisobidan; uchinchisi otasining mol-mulki hisobidan; to'rtinchi manba esa davlat ta'minoti-stipendiya hisobidan bo'lgan⁶³.

Qo'qondagi Norbo'taxon madrasasiga 19 ta savdo do'koni va bitta karvonsaroy vaqf qilingan. 57 hujradan iborat mazkur madrasada 120 ga yaqin talaba tahsil olib, ularga 7 nafar mudarris saboq bergan. XIX asrda madrasadagi yuqori bosqich

⁶⁰ Ичан-Қалъа давлат музей қўриқхонаси фонди. ГХМЗ КП. – №1304, 1305, 1309, 1310, 1327, 1328, 1334, 1336, 1356 va boshqalar.

⁶¹ Отетилеуов Қ., Худойбергенов К. Хива Бекет ота музейи. – Урганч: Хоразм, 2014. – 155 б.

⁶² Қозоқов Э. Хоразм Республикаси ҳукуматининг ислом дини ва руҳонийларга нисбатан олиб борган сиёсати (1920-1924 йиллар): Тарих. фан. номз. ... дисс. – Урганч: 1996. – 182 б.

⁶³ Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири – XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Чашма Принт, 2014. – 127 б.

talabalari 16 rubl, oʻrta bosqich talabalari 8 rubl, quyi bosqich talabalari esa 4 rubldan stipendiya olganliklari arxiv hujjatlarida qayd etilgan⁶⁴.

Xiva madrasalarida darsliklar arab tilida boʻlganligi uchun talabalarga ularning mazmunini mudarrislar tushuntirib berar edilar. Darsliklar mazmuni Xiva madrasalarida oʻzbek tilida, Qoʻqon va Buxoro madrasalarida esa, garchi oʻquvchilar turkiy tilda gaplashsalar-da, fors-tojik tilida tushuntirilar edi. Buning sababi shunda ediki, Oʻrta Osiyo shimolidagi Xorazm yerlarida turkiy tillarda gaplashuvchi koʻchmanchi qabilalar janubroq tumanlardagi koʻchmanchilardan ertaroq oʻtroqlashib qolgan edilar. Xiva xonligiga qarashli barcha aholi esa turkiy tilda gaplashar edi⁶⁵.

Buxoro amirligi va Qoʻqon xonligidan farqli oʻlaroq, Xiva madrasalarida oʻqitish koʻpchilik hollarda turkiy tilda, qisman arab va fors tillarida olib borilgan. Islomiy fanlar arab tilida boʻlganligidan arab tili va grammatikasini oʻrganishga koʻp vaqt ajratilgan.

Ushbu bobning “*Madrasalarda mudarrislar va kutubxonalar faoliyati*” deb nomlangan uchinchi paragrafida madrasalar faoliyatida mudarrislar va kutubxonalarning oʻrni qanday ekanligi masalasi aks etgan.

Xiva xonlari oʻz huzuriga ertalabki nonushta paytida aksari baʼzi bir mudarrislarini taklif etishardi. Ular xon hazratlarining nonushtalari mahalida shariat qoidalari yoki boshqa diniy masalalardan gapirib, suhbatni qizitib oʻtirishlari lozim boʻlgan. Bu ertalabki orom vaqti boʻlib, 2-3 soatga choʻzilardi. Ushbu maʼlumotlarni venger sharqshunos olimi H. Vamberi 1863-yilda Londonda qirollik akademiyasidagi hisobotida eʼlon qilgan edi⁶⁶.

Maʼrifatli Xiva xonlaridan biri Feruzning oʻzi ham tez-tez Xivadagi madrasalarda boʻlib, u yerdagi taʼlim-tarbiya ishlarini shaxsan nazorat qilib borar edi. U madrasa mudarrisi har tomonlama bilimdon boʻlishini, darslarni taʼsirchan va qiziqarli oʻtishini istardi. Shu maqsadda Feruz madrasalarga oxun va mudarrislikka tayinlashdan avval nomzodni chaqirib tanishardi va imtihon qilib boʻlgach, “ochiq dars” oʻtkazishini soʻrardi. Feruzning olim va fozillar ichida bunday oshkora ish tutishining ahamiyati benihoya katta edi. Chunki bunda mudarrislik vazifasiga tayinlanayotgan kishining shaxsiyati, zukkoligi, maʼnaviy dunyosi, fozil-u donishmandligi namoyon boʻlgan⁶⁷.

